

Hamidova Muhayyoxon Obidovna

*Namangan davlat universiteti, Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim kafedrası professori,
f.f.n.*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

“SO‘NGGI BEKAT” ROMANI MILLIY PSIXOLOGIK ASAR

Annotatsiya: *“So‘nggi bekat” romani matbuotda katta shov-shuvga sabab bo‘lgan asarlardan biridir. Ushbu roman yozuchi ta'kidlaganidek nomlanishida ham ramziy ma'no kasb etadi. Shu nuqtai nazardan mazkur maqolada romanning milliy psixologik asar ekanligi xususida atroflicha fikr yuritilgan.*

Kalit so‘zlar: *uslub, yozuvchi individualligi, badiiy tahlil, xarakter, voqealar rivoji, shakl va mazmun, asar g‘oyasi, mavzu ko‘lamii, personajlar taqdiri, dunyoqarash va yondashuv, psixologik asar.*

Хамидова Мухайёхон Обидовна

Наманганский государственный университет, профессор кафедры дошкольного и начального образования, кандидат филологических наук

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

РОМАН “ПОСЛЕДНЯЯ ОСТАНОВКА” — НАЦИОНАЛЬНОЕ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ПРОИЗВЕДЕНИЕ

Аннотация: *Роман «Последняя остановка» относится к числу тех произведений, которые вызвали большой резонанс в прессе. Этот роман, как отмечает автор, также имеет символическое значение в своем названии. С этой точки зрения в данной статье дается всестороннее обсуждение статуса романа как национального психологического произведения.*

Ключевые слова: *стиль, индивидуальность писателя, художественный анализ, персонаж, развитие событий, форма и содержание, идея произведения, тематический охват, судьбы персонажей, мировоззрение и подход, психологическое произведение.*

Khamidova Mukhayyoxon Obidovna

*Namangan State University, Professor, Department of Preschool and Primary
Education, candidate of philological sciences*

E-mail: hamidova muhayyoxon@gmail.com

THE NOVEL “THE LAST STOP” IS A NATIONAL PSYCHOLOGICAL WORK

Abstract: *The novel “The Last Stop” is one of the works that caused a great stir in the press. As the writer noted, this novel also has a symbolic meaning in its title. From this perspective, this article discusses in detail the fact that the novel is a national psychological work.*

Keywords: *style, author's individuality, artistic analysis, character, development of events, form and content, idea of the work, scope of the subject, fate of characters, worldview and approach, psychological work.*

Kirish

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayevning "So'nggi bekat" asari badiiy ahamiyati, mavzu ko'lamining kengligi, obrazlarning xilma-xilligi bilan boshqa asarlardan farqlanib turadi.

"So'nggi bekat" romanida Sodiq va Muniraning munosabati orqali insonning baxt-u baxtsizligi sabablari qadamba qadam ochib beriladi. Inson eng avvalo, o'z umr sherigiga ishonishi va suyanishi kerak. Sodiq esa odamlarga ishonmaydi, hammaga shubha bilan qaraydi.

Adabiyotlar tahlili

Ma'lumki, ijodkorga mavzuni ham, qahramonni ham hayot beradi. Lekin u hayotga nimaiki ko'zga yaqin bo'lsa, kimki originalroq gap aytishga qurbi yetadigan bo'lsa, uni boshdan oyoq tasvirlab ketavermaydi. Ijodkor o'z dunyoqarashiga, iste'dodining ta'biga muvofiq qahramonlar tanlaydi. Shukur Xolmirzayev asardan asarga yangi-yangi qahramonlar dunyosini tahlil qilib borayotganday. Yozuvchining "So'nggi bekat" romani adabiyotimizga o'z dunyosiga, o'z xarakteriga ega bo'lgan qahramonlarni olib kirdi. Romanda, Sabohat o'lim to'shagida yotsa ham unut bo'lib ketayotgan urf-odatlarini, og'zaki ijod namunalarini saqlab qolishga intilishi ishonarli tasvirlangan. Sabohat jisman halokatga uchrayapti, uning o'limi ba'zi xalq og'zaki ijodi durdonalarining ham o'lishi mumkinligini eslatayotganday bo'lib tuyuladi nazarimizda. Yuksak g'oyalar ruhida yashovchi zukko tarixchi Munira adabiyotimizda yangi qahramon, u saidalar, oyqizlar yoki ko'pgina asarlarda madh etilayotgan tursunoylar tipidan emas. U shaxsiy hayotini unutib bo'lsa-da, yuksak g'oyalar ruhida yashaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Shukur Xolmirzayevning "So'nggi bekat" romani "Sharq yulduzi" jurnalida bosilganidan so'ng u haqda boshlanib ketgan munozara yetti yilgacha davom etadi. Bunday uzoq davom etgan bahs sho'ro adabiyotida kam uchraydigan hodisa edi. Adabiyotshunos olimlar Ochil Tog'ayev, Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Umarali Normatov, Hamidullo Boltaboyevlarning roman haqidagi turlicha mulohazalari kitobxonlarda qiziqish uyg'otdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Munozaraga kirishgan adabiyotshunoslar negadir asar g'oyasi, poetikasi,

yozuvchining romanni yozishdan maqsadi nima ekanligiga to'xtalmadilar. Balki ular davr talabidan kelib chiqib romanni birinchi navbatda mafkura qarichi bilan o'lchaydilar va xuddi o'sha joyda asardan uzoqlashish boshlanadi. Holbuki, asarni g'oyaviy-badiiy jihatdan muallif niyatini anglagan holda tadqiq qilish mumkin edi. Ammo asar yozilgan davr siyosati bunga yo'l bermagan, degan fikrga keladi kitobxon.

“Menimcha, roman haqiqatini anglashga ikkita narsa halaqit bergan. Birinchi sabab – roman mavzusi, ikkinchi sababi yozuvchining uslubi tayyor qoliplarga tushmaganida. Ehtimol, sho'rolar davrida adabiyotshunoslikda yozilgan qoidalar bo'lganu, biz bundan bexabardirmiz. Lekin bir haqiqat bor: kelin sepi bilan kelin atalgani kabi, asar badiiyati bilan asar. Hech bir yozuvchi bemaqsad va bemaslak qo'liga qalam olmaydi” [6. 193], degan fikrni ilgari suradi O.Toshboyev.

Tahlillar va natijalar

“So'nggi bekat” nomi, muallif qayd etib o'tganidek, ramziy. Inson hayoti davomida turli sinov va qiyinchiliklarga, baxt va baxtsizliklarga, quvonchli va qayg'uli kunlarga mahkum etilgan ekan, u mana shu bekatdan bekatga o'tish jarayonlarini o'ta sinchkovlik va mahorat bilan tasvirlamog'i lozim. Yozuvchi mana shu aqidaga amal qilaroq ish tutgan. Roman qahramonlari hayotdagi bir to'xtam –bekatnigina aks ettirgan. Hayot davom etishini, uning yana yangi-yangi talab va istaklari bo'lishini inobatga olsak, yozuvchi bekorga qahramonlar taqdiriga aralashmaganini, ularga nisbatan subyektiv hukm chiqarmaganini, oxirgi xulosani ham kitobxonga bejizga qoldirmaganini anglab yetamiz.

Asar qahramonlari asosan yoshlar. Chunki roman yozilgan vaqtda muallifning o'zi o'ttiz beshga to'lib-to'lmagan edi. U asarga ongli ravishda tengdoshlari hayotini tanlagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, roman jo'shqin bir kayfiyatda, ehtiros bilan yozilganligi yaqqol ko'rinib turadi va o'quvchida ham mana shunday kayfiyat uyg'otadi. Roman juda oddiy va sodda usulda bitilgan. Tili ravon va shirador.

Roman voqealari biz ko'rgan, tanishgan Bekatda–eskilik va yangilikni o'zida mujassam etgan makonda soxta pafos va sun'iy chaqiriqlarsiz kechadi. Sirtan

sokin, botinan qizg'in o'tayotgan hayotni qanday qilib quruq bayon qilish mumkin? Adabiyotshunos olimlarimiz haqli ravishda ta'kidlashganidek, yozuvchi ana shu hayotni, undagi voqealarni xolis turib tasvirlaydi. Asardagi obraz va xarakterlar aniq-tiniq chizilgan. Har birining o'z qiyofasi, dunyosi bor.

Romanni bugungi kun ko'zi bilan o'qigan kitobxon ham o'zida bir mamnuniyat, qoniqish hosil qiladi. Chunki g'oya abadiy va o'lmasdir. Asarga go'zallik baxsh etib turgan nur-jilo ham uning mohiyatida. Romandagi ba'zi o'rinlar – xo'jalik hayoti bilan bog'liq sahnalar va davr siyosatini anglatuvchi so'z va tushunchalar tahrir qilinsa, ajoyib milliy psixologik asar paydo bo'ladi. Romanda kitobxonni hayratga tushiradigan, mo'jizalar sodir qiluvchi qahramon yo'q. Yaratilgan xarakter va obrazlar oddiy odamlar. Lekin ularning kundalik tashvishdan, maishiy hayot muammolaridan boshqa "muammolari" ham borki, ana o'sha jihati bilan ularning rutbasi baland. Shu sabab ularning taqdiri o'quvchini o'ylantiradi, turli mulohazalarga, xayollarga eltadi. Shu sabab ularning taqdiri o'quvchini o'ylantiradi, turli mulohazalarga, xayollarga eltadi. Romanda katta ijtimoiy-ma'naviy fojialar ham ko'rsatib o'tilgan, ammo biron bir o'rinda na qahramon tilidan, na yozuvchi tilidan bunga izoh yo'q. Obrazlar hayot tarzi va o'zaro munosabat-to'qnashuvlari orqali o'quvchi o'zi anglab oladi. Sodiq bilan Munira oilasi omonat. Barot chol uchun oilaning bir pullik qadri yo'q, kufroniy g'oya va qarashlari bilan kun o'tkazayotgan kimsa. Is'hoq chol yorti odam. Kampiri qazo qilganidan beri keliniga suyanib qolgan. O'g'li Mamarajab va kelini Nasiba qurgan oila bino bo'lmasidan nuragan. Xo'jalik rahbari O'ktam bu yosh oilaning buzilib ketayotganiga o'zini aybdor sanamaydi. Ahadova muallim eri Termizda harbiy bo'lgani uchun yolg'iz yashaydi. Uch o'g'il shaharda. Uning ayollik orzusi – oilasi butun bo'lishi. Yuqorida aytganimizdek, bir qarashda jamiyatning tayanchi bo'lgan oilaviy inqiroz va parokandaliklar yaqqol ko'zga tashlanmaydi. Lekin sotsialistik tuzumda kichik yacheyka deb sanalgan oilalar kishi bilmas tarzda jar yoqasiga kelib qolganini ko'rish mumkin. Romandagi bu epizod va obrazlar holati kitobxonni befarq qoldirmaydi. O'quvchi ularning biriga achinsa, biriga xayrixoh bo'ladi, yana biridan nafratlanadi. Chunki roman

kitobxonga hayotiy, real odamni ro'para qiladi: yasalgan, bir xil qolip va shablonlarga solinib, silliqqlangan obrazni ko'rmaymiz. Yozuvchi to'lib ketgan qalbini yoradi va kitobxon oy-kuni yetib tug'ilgan rostmana asarni ko'radi.

Asar bilan yaqindan tanishgan kitobxonga asar qahramonlarining ikki xil qiyofasi borgan o'xshab ko'rinadi. El-yurtini behad sevadigan, o'zligiga qaytishni orzu qiladigan, katta g'oyalar bilan yashaydigan odamlarning ba'zi ishlari, fe'l-xo'yidagi illatlarni ko'rib dastlab shunday taassurot uyg'onadi. Bunday hol an'anaviy asarlardagi bu – oq, bu – qora, deb chiqariladigan xulosalarga ko'pda mos tushmaydi. Har bir detaldan ustalik bilan foydalanadigan, unga olam-jahon ma'no yuklaydigan adib mana shu ziddiyatdan ham foydalanib, asarning umumiy ruhiga xos bo'lgan ramziylikni quyuqlashtiradi. Birinchidan, eslatilganidek, yozuvchi odamni odamday, boricha, barcha murakkabliklari bilan tasvirlashni maqsad qiladi. Inson hayoti esa azaliy kurash – Rahmon bilan Shaytonning, ezgulik bilan yovuzlikning ziddiyatidan iborat. Ikkinchi ramziylik shundaki, asar qahramonlari xarakteridagi bunday g'alati paroks butun millat ziyolilariga xos bo'lgan hayotiy voqealar uning “Binafsha hidlang, amaki!” essesida ro'yirost tasvirlangan. Asarda qahramonlar dialoglariga ko'p o'rin berilgan va bu o'ziga xos uslubni shakllantirgan deyish mumkin. Biz romanni bekorga milliy-psixologik asar demadik. Nazarimizda, o'zbek urug'lari, O'zbekiston tarixi, urf-odat va marosimlarini aziz bilgan adib bir butun o'zbek xalqi obrazini gavdalantirishni niyat qilgan va bunga erishgan. Qanday porloq orzu! Axir, millatning vijdoni uyg'oq farzandlari bir kun kelib millati yakdil bo'lishini orzu qilib o'tgan-ku?! Asar ruhiga singdirilgan mana shu g'oya o'z davrida ta'qib qilingan. Mustabid tuzum davrida odamlar qalbida milliy uyg'onishga erishishni ko'zlagan yozuvchimiz bu xayrli ishga ancha oldin bel bog'lagan.

Jumladan, asar qahramonlaridan Sabohat – jonini vatan va xalq yo'lida, erk-istiqlol yo'lida fido qilgan o'zbek ziyolilarining umumlashma obrazi. U orzu-umidlari, ideallari bilan o'z davridan o'zib ketgan inson. Sabohat xalq qo'shiqlarini tinglab o'sgani sababli milliy urf-odatlarga boshqacha mehr bilan qaraydi va ularni asrab-avaylashga o'zini mas'ul deb biladi. U xalqning sadr

tepish, zikr tushish odatlarini Chig'atoyda, Kenagasda, Ola Choponda ko'radi va sadrning, zikrning ashulasiga qiziqadi. Matnini yozib olishga intiladi. Shogirdi Boybo'ridagi she'rga, shoirlikka bo'lgan iqtidorni anglab, unga "Shoir xalqi xalqqa yaqin bo'lishi kerak, uning ruhini bilish kerak. Xalqning ruhi avvalo uning ertaklarida, og'zaki ijodida aks etgan" [7, 157], degan gaplarni muntazam takrorlab keladi. "Shoir bo'laman desang, xalq termalarini yig', o'rgan! Ohangi, tovlanishlari yuragingga singsin!"[7, 157]. Bu obrazni ko'rib-kuzatsangiz, sinchiklab qarasangiz, XX asr boshlaridagi ma'rifatparvar ziyolilar ko'z oldimizga kelaveradi. Uning o'limi yozuvchining istagi bilan emas, balki mantiq bilan amalga oshadi. Chunki u sho'ro siyosati istamagan shaxs. Bunday "zararli" mafkura bilan qurollangan inson jamiyatda bo'lishi mumkin emas. Yozuvchi Sabohatning o'limi orqali ko'p masalalarga ishora qiladi, tarixga urg'u beradi. Chunki bunday g'oyalar bilan yashagan, kurashgan ziyolilar asr boshida mustabid tuzum tomonidan garchi ommaviy qirg'in qilingan esada, ularning maqsad-g'oyalari, qarashlari o'lgan emas. Shuning uchun ham Muniraga vasiyat qiladi, ishining davom etishini istadi.

Romanning bosh qahramoni Munira Bekatga kelib Ajinatepa siriga mahliyo bo'ladi va unda bir sir yashiringaniga ishonadi. Yozuvchini roman bitishga undagan, uni bezovta qilgan g'oya xuddi mana shu obrazga yuklangan. Roman mana shu yo'nalishda o'rganilsa adibning nima demoqchi bo'lganini, asarning o'zak g'oyasi nimadan iborat ekanligini anglaymiz.

Munira asarning yakuniga qadar bir o'rinda o'zining baxtiyor ekanligini aytadi. O'ylab ko'raylik. U nimadan masrur? U baxt deganda nimani nazarda tutdi? Axir u eriga ergashib bu yerlarga kelgan edi-ku? U bungacha Bekat haqida faqat nazariy bilimga ega edi xolos. Uni maftun qilgan narsa Bekatning oddiy, sodda, samimiy odamlari bo'ldi. Tumandagi ma'rifatparvarlar bo'ldi. Munira ko'ngliga yaqin, ruhiga mos g'oyaviy hamfikrlar topdi va uning tussiz hayotiga mazmun kirdi. U bungacha Sodiq tufayli ezilgan, xo'rlangan, aldangan edi. Romanda sadoqat va xiyonat, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash rang-barang obrazlar misolida

ochib beriladi. Asardagi er-xotin Sodiq va Munira – ikki olam. Biri ko‘ngil odami bo‘lsa, biri dunyo odami.

Xulosalar

Umuman olganda, “So‘nggi bekat” romanidagi hayotning jonli manzaralari kitobxonni maftun qiladi. Asarda Shukur Xolmirzayev yaratgan qahramonlar faqat shaxsiy erkinlikni qo‘lga kiritish bilangina qanoat hosil qiladigan odamlar emas. Shu bilan birga, ular umumjamiyat manfaatlarini yoqlaydilar, jamiyat taraqqiyotini ta‘minlash uchun o‘tmishdan bizgacha yetib kelgan madaniy merosni ko‘z qorachig‘idek saqlash zarur ekanini yaxshi tushunadilar.

Adabiyotlar

1.Hamidova M. Hozirgi o‘zbek adabiyotida milliy qahramon muammosi (Shukur Xolmirzayev ijodi misolida): Monografiya. - Toshkent: Navro‘z, 2020.- 148 b.

2.Hamidova M.O.Shukur Kholmirzayev's skills of creating portrait // International Journal of Applied Rezearch 2020; 6 (5): 448-450.- B. 448-450.

3.Normatov U. Bekatdagi tanishuv // Guliston, 1976.- № 11.- B.35.

4.Qo‘shjonov M. Saylanma. 2 jildlik.-T.: Adabiyot va san'at, 2-jild, 1983.-359 b.

5.Tog‘ayev O. Tasvir va muddao // Sharq yulduzi, 1981.- № 11.- B.46.

6.Toshboyev O. Abadiy zamondosh. Shukur Xolmirzayev hayoti va ijodiy faoliyatidan lavhalar.-Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018.-480 b.

7.Xolmirzayev Sh. So‘nggi bekat: roman.- Toshkent:: “Ziyo nashr” nashriyoti, 2023.- 272 b.

8.Sharafiddinov O. Go‘zallik izlab.-Toshkent: Adabiyot va san’at, 1985.-224 b.